

**BOSHLANG'ICH TA'LIM TABIIY FANLARIDA EKSORSIYA
DARSLARINI TASHKIL QILISH**

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Alimardonova Mo'tabar Xolmo'minova

*Shahrisabz davlat Pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
talabalari*

Abdurahmonova Mohichehra Mumin qizi

Qoryog'diyeva Mohinur Oybek qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fan darslarini tashkil etish, tabiiy fan darslarida jonli burchaklar tashkil qilish, o'quvchilarni amaliy mashg'ulot ishlariga jalb qilish, turli maktab ichkarisi va maktab tashqarisiga ekskursiyalarga olib chiqish, ekskursiyaga chiqish tartib va qoidalari bilan tanishtirish hamda tabiiy fan o'qituvchisining amaliy ishlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar. *Zamonaviy o'qituvchi, yaxshi o'qituvchi, zamonaviy ta'lim, amaliy dars, ekskursiya, virtual ekskursiya, maktab ichida va maktab tashqarisiga ekskursiyalar.*

Bugungi kunning dolzarb masala va talablaridan biri sifatida yaxshi zamonaviy o'qituvchi imidjini yaratish deya aytish mumkin. Masalan, yaxshi o'qituvchi bo'lish mumkin, ammo zamonaviy o'qituvchi bo'lish qiyin. Zamonaviy o'qituvchi zamonaviy ta'limga mosdir. Zamonaviy o'qituvchi yangi texnologiya va yangi amaliyot darslar bilan qurollangan o'qituvchidir.

Shu maqsadda 2020-yil „Milliy o'quv dasturi“, 2019-2020-yillarda STEAM texnologiyasining joriy etilishi ham aynan O'zbekistonda zamonaviy o'qituvchi va zamonaviy darslarni shakllantirishni maqsad qilgan.

„Milliy o'quv dasturi“da faqat nazariyadan iborat bo'lgan darslar endi amaliy darslar bilan almashtirilishi zarurligi haqida alohida fikr yuritilgan. Shu jumladan, boshlang'ich sinflarda tabiiy fan darslarining joriy etilishi va bu darslarni tashkil qilish



alohida o‘rin egallaydi. Tabiiy fan darslari boshqa fanlardan farqli o‘laroq ham nazariy ham amaliy darslarni teng shaklda olib borilishini talab qiladi. Tabiiy fan darslari yangi ko‘rgazmalar, yangi ma’lumotlar va yangi texnologiyalarsiz samarali natijaga erisha olmaydi. Amaliy darslarni boshlang‘ich sinf davridayoq boshlash maqsadga muvofiqdir. Amaliy darslar o‘quvchilar bilimini mustahkamlaydi, darsni o‘quvchi ongida singishini osonlashtiradi. Masalan, sinflarda tabiiy fan darslarida o‘simliklar, hayvonlar yoki tabiat bilan bog‘liq jonli burchaklar, tabiat qo‘ynida ekskursiyalar, muammoli vaziyatlar va ularning yechimlarini topish kabi amaliy ishlarni tashkil qilish mumkin. Shu o‘rinda darslarda ekskursiyalar tashkil qilish muhim va eng qiyin faoliyatdir.

Ekskursiya — bu o‘quvchilarni turli tabiiy muhitlarga olib borish orqali o‘rganilayotgan fan bo‘yicha amaliy tajriba orttirish imkoniyatini taqdim etadigan ta’lim metodidir. Ekskursiyalar tabiiy fanlarda o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, ekologik bilimlarni oshirish, tabiatni asrashga bo‘lgan mas’uliyatni his qilish imkonini yaratadi. Ekskursiya o‘tkazishning asosiy maqsadi o‘quvchilarning o‘zlariga yaqin tabiatni chuqurroq tushunib olishlarini ta’minlash va ilmiy tafakkurlarini rivojlantirishdir.[1]

Ekskursiya darslarining bir necha texnologiyalari mavjuddir.

1. Ekskursiya haqida tushunchaga ega bo‘lishi hamda ushbu ekskursiya amalga oshiriladigan ishlar maqsadini aniqlab olish.

2. O‘quvchilarga ekskursiya vaqtida nimalarga e’tibor berishlari, masalan, qanday ishlarni amalga oshirishlarini tushintirish va topshiriqlar berish. Masalan o‘quvchilar o‘zlari bilgan o‘simliklarni ko‘rishlari va o‘simlik turlarini sanashlari mumkin.

3. O‘quvchilarning ko‘rgan narsalari haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari va ularni sinfda muhokama qilishlari uchun o‘zlari bilan yon daftar yoki fotoapparatlar olishlarini eslatib o‘tush kerak.

4. Ekskursiyaga mos tarzda kiyinish va tegishli tashkilotlardan ruxsat olish.

Xuddi shu tarzda boshlang‘ich sinflar uchun ekskursiya darslarini tashkil etish mumkin.



O‘z o‘rnida ekskursiyalarni maktab ichida o‘tkazish ham mumkin. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xavfsizligini yuqoriroq darajada ta‘minlab beradi. Masalan, sinfda virtual ekskursiyalarni tashkil etish. Monitor ekranidan mavzuga oid o‘simlik, hayvon yoki tog‘ jinslari kabilarni ko‘rsatish ularning muhiti, sharoiti bilan o‘quvchilarni tanishtirish mumkin.

Xulosa.

Bugungi zamonning talabi sifatida ham amaliy ham nazariy darslarni teng shaklda olib borish. O‘qituvchining rolini nazariy darslarda ham kamaytirish, o‘qituvchi faqat yo‘naltiruvchi, rahbar boshqaruvchi sifatida ishtirok etishi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda ham ko‘proq amaliy darslarni ayniqsa informatika, tabiiy fanlarni ko‘proq jonli tarzda o‘tkazish dars samarasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. . D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005-yil
3. A.Baxronov, Tabiatshunoslik 3-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.
4. A.Baxronov Tabiatshunoslik 4-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Sharq NMIU 2011 y.